

## TAKRORNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Haydarov Anvar Askarovich,  
Ingliz tilshunosligi kafedrası professorı  
Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek nasri va she'riyati misolida takroriy stilistik vosita, uning turlari va nutqdagi vazifasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *takror, fonetik takror, unli takrori, undosh tovushlarning takrori, bo'g'in takrori, anafora, epifora, halqa takrori, topilma takrori, qator takrori, o'zak takrori, sinonimik takror*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется повторяющийся стилистический инструмент, его виды и функции в речи на примере английской и узбекской прозы и поэзии.*

**Ключевые слова:** *повторение, фонетический повтор, повторение гласных, повторение согласных звуков, повторение слогов, анафора, эпифора, кольцевой повтор, поисковый повтор, струнный повтор, корневой повтор, синонимический повтор*

**Annotation:** *This article analyzes the repetitive stylistic tool, its types, and function in speech on the example of English and Uzbek prose and poetry.*

**Key words:** *repetition, phonetic repetition, repetition of vowels, repetition of consonant sounds, repetition of syllables, anaphora, epiphora, ring repetition, finding repetition, string repetition, stem repetition, synonymous repetition*

Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llanadigan sintaktik-stilistik figuradir. Bir xil yoki bir-biriga o'xshash to'vush til birliklarining badiiy nutqda takrorlanish hodisasidir yoki boshqacha aytganda, ayni so'zni takror qo'llash bilan tuzilib ,ko'plik,davomiylik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z,so'zning takroriy formasidir.<sup>1</sup>

Takror haqida fikr yuritilganda,avvalo fonetik takror masalasiga e'tibor qaratish lozim.Fonetik takror ayrim tovushlarning misralararo takroriga asoslanuvchi stilistik figuralar:anaphora, epifora, alliteratsiya, assonanslarda aksini topadi.Tovush takrori termini dastlab O.Brik tomonidan keltirilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan.Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va undosh tovushlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Unli tovushlar takrori, undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori kabilar xalq og'zaki ijodi namunalarida, poetik nutqda ko'p uchraydi.Fonetik takror asosan, badiiy nutq uslubiga xosdir. Fonetik unsurlarni ataylab takrorlash orqali asar muallifi badiiy tasvir kuchini oshirishga, his- tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi.

Tovush takrori ,ayniqsa, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tasvir ob'ektiga ko'proq jalb qilish uchun ishlatiladi.Takrorning asosiy vazifasi nutqni ta'sirchan qilish,fikrni konkretlashtirish va unga tinglovchi diqqatini tortishdir.<sup>2</sup>

Takrorning sintaktik-stilistik xususiyatlari haqida tilshunoslardan I.M.Astafyeva<sup>3</sup>, M.N.Adilovlar maxsus monografik tadqiqotlar olib borganlar.

<sup>1</sup> Hojiyev A.Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.-T:–“O'qituvchi”.1985.-B.86.

<sup>2</sup> Haydarov A.Badiiy uslubning fonetik vositalari / Til va adabiyot ta'limi.-T:2007-N2-B.36-38

<sup>3</sup> Астафьева И.М. Виды синтаксических повторов, их природа и стилистических использования. -М:1968.- С. 14-16

Takror nutqning og'zaki shakli xususiyatiga asoslangan sintaktik-stilistik vosita bo'lib, u hayajonli holatni ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Emotsional nutq qisqaligi, mantiqiyligi va bayon qilinayotgan fikrning ayrim bo'laklari takrorlanishi bilan ajralib turadi. Takror stilistik vositasining ishlatilishi tabiiy bo'lishi lozim hamda ma'lum bir so'zlar takrori gapda so'z o'yinini yaratishga xizmat qiladi.<sup>4</sup>

Masalan: *For that was it? **Ignorant** of the long and steally march of passion and of the state to which it had reduced Fleur, **ignorant** of how Soams had watched her, **ignorant** of Fleur's reckless desperation ... **ignorant** of all this everybody felt aggrieved.* (J. Golthworthy)

Yuqoridagi kichik matnda **ignorant** so'zining takror kelishi o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etish uchun muallif tomonidan stilistik figura sifatida ishlatilgan. Takror va uning stilistik funksiyasi haqida professor A. Mamajonov fikr yuritib, uning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik takror ko'rinishlari mavjudligi, bunday takror tiplari xalq og'zaki ijodida badiiy publitsistik asarlar tilida juda keng qo'llanilishi bayon qilgan. " Bu holat deb, yozadi olim, sintaktik- stilistik figuralar analizi uchun boy material bo'lib hisoblanadi, hamda takror bo'yicha alohida va muhim tekshirishlar olib borish, tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini tug'diradi." <sup>5</sup>

Til tadqiqotchisi M. Saidova takror stilistik figurasi haqida fikr yuritib, uni ingliz tilida quyidagi turlari borligini, qayd etadi.<sup>6</sup> Uning fikriga qo'shilgan holda ushbu takror tiplariga munosabat bildiramiz.

1. Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anaforadir. Boshqacha aytganda, parallel tuzilgan nutq parchalari boshida aynan bir elementning takrorlanishidir. Adiblar anaforadan his-hayajon, ko'tarinki ruh bilan aytiladigan nutq shakllarini yaratish uchun foydalaniladilar. Masalan:

*1. For want of a shoe, the horse was lost,*

*For want of a horse, the ride was lost.*

*For want of a rider, the battle was lost.*

2. *Always in Rome,*

*Always with the girls*

*Always with the carabinieri.*

O'zbek she'riyatida Uyg'unning quyidagi she'rida ham anaphora o'rinli ishlatilgan: **Qani qizlar, qani o'rtoqlar? Qani ko'klam, qani go'zal yor?**

**Qani gullar, qani bulbullar? Qani shodlik, qani kulgu soz?**

2. Nazmiy asarlarda so'z yoki misralar oxirida ifodaviylikni kuchaytirish uchun ayrim unli yoki undosh tovush takrorlanadi. Bunga tovush nihoyasi yoki epifora deyiladi. Masalan: 1.

*When I go into the beach I get **rattled**.*

*She clerks **rattle** me*

*She wickets **rattle** me*

*The sight of money **rattles** me*

*Everything **rattles** me. ( Lexset )*

Xulosa qilganda, takror, ayniqsa, fonetik takror asarga chuqur hissiy va emotsional mazmun beradi. Kitobxon hamda tinglovchi qalbida nozik his-tuyg'ularni qo'zg'aydi, badiiy asarlar evfonik

---

<sup>4</sup> Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М: Наука, 1968. -С.144

<sup>5</sup> Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T:fan.1990.-B.18-24.

<sup>6</sup> Saidova M.B. Ingliz va o'zbek tillarida takror stilistik vosita sifatida. BuxDU ilmiy ishlar to'plami. -Buxoro.2006.-B.119-123.

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

---

kjihatdan yetukligidan darak beradi va badiiy tilning go'zal namunalarini yaratishda asosiy fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahrorovna, N. N. (2022). STUDY OF ANTHROPNYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 90-96. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/download/619/575/>
2. Anvar Haydarov. (2020). Methodological features of graphic tools. Middle European Scientific Bulletin, 5. <https://doi.org/10.47494/mesb.2020.5.73>
3. Haydarov Anvar Askarovich. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. International Engineering Journal For Research & Development, 6(TITFL), 91–94. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/3Q7SB>
4. Nazarova, N. (2022). Обучение молодых учащихся через интерактивные игры.ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 7(7). [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4979](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4979)
5. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>